

NODIRA IJODINI TA'LIM TIZIMIDA O'RGANILISHI

Allayarova Mahliyo Faxriddin qizi

SamDPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining mashhur va'kilalaridan biri bo'lgan Nodira ijodini ta'limda joriy qilinishi keltirib o'tilgan. Nodira ijodidagi vazn, badiiy san'atlarning o'rni hamda ahamiyati haqida munosabat bildirilgan. Shoiraning g'azallarida qo'llanilgan vaznlar, poetik mahorati badiiy tasvir (tashbeh, istiora, mubolag'a, tajnis) vositalari misollar orqali yoritiladi. Shu bilan bir qatorda hozirgi davr adabiyot darsliklarida ayol yozuvchilarning hayoti va ijodini o'rganish masalasini tahlil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning adabiy merosga bo'lgan qiziqishi va ayol yozuvchilarni o'rganishning ijtimoiy-madaniy ahamiyati ham muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada Nodira she'riyatining badiiy-estetik xususiyatlari hamda uning o'zbek adabiyotidagi o'rni haqida ma'lumotlarni ochib berishga qaratiladi.

Kalit so'zlar: Mumtoz adabiyot, Nodira, qofiya, aruz, vazn, g'azal, badiiy san'at, tashbeh, istiora, poetika, adabiyot darsliklari, pedagogik metodlar.

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА НОДИРЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аллаярова Махлиё Фахриддин кизи

*магистрантка I курса Самаркандского государственного
педагогического института*

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос включения в образовательный процесс творчества одной из известных представительниц узбекской классической литературы Нодиры. Обсуждается роль и значение поэзии в творчестве Нодиры. На примерах иллюстрируются стихи, используемые в газелях поэтессы, поэтические приемы, художественная

образность (аллюзия, метафора, гипербола, таджнис). Одновременно анализируется вопрос изучения жизни и творчества женщин-писательниц в современных учебниках литературы. Также обсуждается интерес студентов к литературному наследию и социокультурное значение изучения женщин-писательниц. В статье также уделяется внимание раскрытию информации о художественно-эстетических особенностях поэзии Нодиры и ее роли в узбекской литературе.

Ключевые слова: Классическая литература, Нодира, рифма, аруз, стих, газель, художественное искусство, метафора, аллегория, поэтика, учебники литературы, педагогические методы.

STUDYING NODIRA'S WORKS IN THE EDUCATION SYSTEM

Allayarova Mahliyo Fakhriddin qizi

First-year Master's student at Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. *This article examines the inclusion of the works of Nodira, one of the renowned representatives of Uzbek classical literature, in the educational process. The role and significance of poetry in Nodira's work is discussed. Examples illustrate the verses used in Nodira's ghazals, poetic techniques, and artistic imagery (allusion, metaphor, hyperbole, tajnis). The study of the lives and works of female writers in modern literature textbooks is also analyzed. Students' interest in literary heritage and the sociocultural significance of studying female writers are also discussed. The article also focuses on the artistic and aesthetic features of Nodira's poetry and her role in Uzbek literature.*

Keywords: *Classical literature, Nodira, rhyme, aruz, verse, ghazal, art, metaphor, allegory, poetics, literature textbooks, pedagogical methods.*

Kirish. O'zbek adabiyotida ayol shoiralar alohida o'rin egallaydi. Ular orasida Nodira ijodi o'zining badiiy mukammalligi, mazmun teranligi va poetik boyligi bilan

ajralib turadi. Nodira nafaqat iste'dodli shoira, balki madaniyat va adabiyot homiysi sifatida ham tarixda muhim iz qoldirgan. Shoiraning g'azallari muhabbat, sadoqat, sabr, hijron kabi insoniy tuyg'ularni ifodalash bilan birga, badiiy shakl jihatidan ham mukammal hisoblanadi. Ayniqsa, aruz vaznidan mahorat bilan foydalanishi hamda turli badiiy san'atlarni qo'llashi ijodkor ijodining estetik qiymatini oshiradi.

Shu bilan bir qatorda hozirgi davr adabiyot darsliklarida ayol ijodkorlarning hayoti va ijodini o'rganish o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Nodira kabi yozuvchilar, o'z asarlari bilan nafaqat zamonaviy o'quv dasturlariga boylik qo'shgan, balki o'quvchilarga qadriyatlar, hayotiy tajribalar va ma'naviy o'sish imkoniyatlarini ham taqdim etgan. O'quv darsliklarida ayol ijodkorlar hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar o'quvchilarga ayolning jamiyatdagi roli, uning ijodiy faoliyati va shaxsiy qiyinchiliklarga qaramay yaratuvchanlik qobiliyati haqida tushuncha beradi.

Mohlaroyim-Nodira XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan, ajoyib she'rlari bilan o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin tutgan ma'rifatparvar shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysi.

Mohlaroyim bizgacha Komila, Nodira, Maknuna taxalluslari bilan o'zbek va fors-tojik tillarida yaratilgan lirik asarlardan iborat kattagina adabiy merosi etib kelgan.

Nodira o'zbek adabiyotining Qo'qon adabiy maktabida kamol topgan va uning taraqqiyotiga cheksiz xissa qo'shgan ma'rifatparvar qalam sohibasidir. Shoira yashab ijod etgan davrda Qo'qon xonligi o'zbek adabiyoti keng rivoj topib, o'ziga xos adabiy muhit yuzaga keldi. Uning boshida Qo'qon xoni Umarxon (Amiriy) turar edi. Nodira ham o'zbek adabiyotida ustozlik va homiylik darajasiga ko'tarila olgan yirik siymolardan biri edi.

Nodiraning adabiy merosi o'zbek she'riyatining go'zal sahifalarini tashkil etadi. Uning o'zbek va fors tillarida bitilgan devonlari, shoira she'rlari kiritilgan bayozlar bizgacha etib kelganki, ularda mumtoz qalam sohibining 10 ming misradan ko'p lirik asarlari jamlangan.

U mumtoz adabiyotimizda asosan g'azal, muxammas, musaddas, musamman, tarji'band, tarkibband, firoqnoma kabi janrlarida qalam tebratdi. Nodira Hofiz, Lutfiy,

Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Bedil, Huvaydo kabi Sharq adabiyotining ulug' siymolari an'analaridan ayol qalbining nozik tuyg'ularini aks ettirishda samarali foydalandi. Nodira g'azallarida vafo, muruvvat, odamiylik, poklik, sadoqat tuyg'ulari ulug'landi. Uning lirik qahramoni nomus va hayoni yuksak darajada qadrlagan. Sevgida insoniy muomalada iffat, odob va andisha saqlashga ahd qilgan sadoqatli ayol, vafodor do'stdir.

Nodiraning ishqiy g'azallari shashmaqom yo'llarining boy bir qismini tashkil etadi. Bu esa inson qalbini ilitadi, unda go'zallik va nafosatga nisbatan muhabbat uyg'otadi. Aqli, xulqi va badiiy didini boyitadi. Shu ma'noda, uni pok muhabbat, sadoqat va vafodorlik kuychisi sifatida qadrlaymiz. Uning mana bu g'azali zamirida qanchalik chuqur ma'no, dard, hikmatga moyil badiiylik yotganligiga ishonch hosil qila olamiz. Shoira hayotiy qiyoslardan, xalq hikmatli iboralari va o'xshatishlaridan foydalanib inson umrining bebaholigi, qismatning dushvorligi haqida so'z yuritadi:

*Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.
Har kishini bir munosib yori bor
Men o'shal ovoradurman yorsiz.
Ul parivash vaslidin bo'ldim judo,
Rohati dil qolmadi dildorsiz....¹*

Nodira muhabbat tasvirining haqiqiy ustasidir. Nodira talqinicha, ishq-muhabbat oshiqning dinu mazhabiga aylansagina, u kamolot qozonadi:

Qil, Nodira, muyassar sho'ri junun jahonda,

Ishqu muhabbat o'ldi oshiqqa dinu mazhab.

Ushbu baytning o'zida vazndoshlik, qofiyadoshlik va ohangdoshlikka asoslangan tarse' san'atidan foydalangan.

Nigori gulbadanimni tushumda ko'rsam edim.

Labi shakarshikanimni tushumda ko'rsam edim.

bu baytda esa, kuchli istiora san'atini qo'llagan.

Vaqtı xirom, ey sanam, diydalarimga qo'y qadam,

¹ Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi - T.: 2006.

Xoki rahingga aylaram chashmi guharfishon fido

baytidagi “sanam”, “chashmi guharfishon” so‘zlari istioralardir.

Nodira ayniqsa qofiya san’atida o‘ziga xos mahorat ko‘rsatadi. Chunki qofiya badiiyatning muhim belgilaridan bo‘lib, u she’riy asarlarda ifodalanayotgan fikrning jozibali, nizomli va ta’sirchan chiqishini ta’minlaydi. Har qaysi misra, bayt, banddagi qofiyalarda, qofiyadosh so‘zlarda ijodkorning g‘oyaviy-badiiy niyati o‘z ahamiyatini topadi. Ijodkor qofiya vositasida o‘z o‘quvchisi diqqatini she’rdagi eng muhim fikrlarga jalb qiladi. Qofiyadosh so‘zlar asarda gavdalanayotgan lirik yoki epik timsollarning ma’naviy qiyofasini chizishga, ularning axloqiy prinsiplari: tafakkur olami, tuyg‘ulari, orzu-armonlarini yorqin aks ettirishga xizmat qiladi. Qofiyalar she’riy asar musiqiyliigi, jozibadorligini ta’minlashning asosiy omillaridan sanaladi. Qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi har qaysi tovush misra, bayt, bandga alohida jilo, ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

Sharq mumtoz adabiyotida musammatning bir turi hisoblanmish muashshar (o‘nlik band turi)ning ayrim namunalari uchraydi. O‘zbek adabiyotida kattaqo‘rg‘onlik shoir Shavqiy, xorazmlik Ahmad Tabibiy va shoira Nodira bu qiyin she’r shaklida ham o‘z mahoratlarini sinab ko‘rgan. Nodira lirikasida uning umr yoidoshi Umarxon shoir Amiriydan bevaqt judo bo‘lganida yozilgan marsiya-firoqnoma borki, uni o‘qigan, tinglagan inson larzaga tushadi.

Bu firoqnoma muashsharda birinchi o‘nlik band misralarining sakkiztasi o‘zaro qofiyalanib keladi (aaaaaaa), qolgan ikki misrasida boshqacha qofiyalar keladi (bb). Umumiy qofiya tartibi: aaaaaaaabb, aaaaaaaabb... shaklda keltirilgan. Hamma o‘nlik bandlarning avvalgi sakkiz misrasi mustaqil qofiyalanib, har band oxirida birinchi band so‘nggida kelgan bayt o‘zgarishsiz aynan takrorlana boradi. She’r tarkibidagi barcha poetik komponentlar qatorida undagi qofiyalar, radiflar Nodira qismatiga tushgan ayriliq dardlarini ifodalashga xizmat qiladi. Shoira har qaysi o‘nlik bandlarda musibat kechinmalarini ifodalovchi sakkiztadan qofiyadosh so‘zlarni topib ishlatadi. Bir bandi:

Ohkim, behad menga javru jafu aylar falak,

Furqat ichra qismatim dardu balo aylar falak,

Yordin ayru mango ko ‘p mojaru aylar falak,

G‘am bila guldek yuzumni qahrabo aylar falak,

*Bevafodur, oqibat kimga vafo aylar falak,
Hasratu dardu alamga muftalo aylar falak,
Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni be bargu navo aylar falak,
Hech kim, yo rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortiq mehribon dildoridin ayrilmasun.¹*

Bu o'rinda Nodiraning qofiya tirgaklari radif kabilarni ishlatishga ham o'zgacha mas'uliyat bilan qaraganligini takidlash lozim. Raviylar qofiyaning kompozitsion markazini tashkil etadi. U qofiyaning asosidir. Aruzda yozilgan she'rlarda ko'proq harakatsiz undoshlar, ba'zi hollarda esa, cho'ziq unlilar (*o, u, o'*) raviy bo'lib keladi. Raviy, asosan, bir tovushning qofiyadosh so'zlarda aynan takroridan, ba'zan eshitilishi bir-biriga yaqin boigan tovushlarning almashinishidan (*t-d, g '-q, q-k...* kabilar) paydo bo'ladi. Nodira o'zi mahorat bilan topib qo'llagan qofiyalarida raviylarga katta e'tibor beradi.

*Yoming oshuftasi vahm aylamasu o 'z jonidin,
Jon firoqi sahldur, ayrilmasun jononidin.*

Baytdagi qofiyadosh so'zlar o'zagidagi "n" tovushi raviydir. G'azalning yuqorida keltirilgan matla' baytidan keyingi baytlaming juft (ikkinchi) misralaridagi so'nggi qofiyadosh so'zlar: *yonidin, zindonidin, bayonidin, bepoyonidin, tofonidin, hijronidin* birinchi baytdagi "jonidan" va "jononidin" so'zlari bilan ohangdoshlikka kirishganki, ulardagi "n" harfi-raviyning o'ri katta bo'lgan.

Nodira o'z g'azallarida alvon-alvon qofiyalar bilan birga radiflar ham qo'llaydi. U bir so'zli, ikki so'zli, hatto uch so'zli radiflarni juda o'rinli qo'llaydi. Bir so'zli radif:

*Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat...*

Ikki so'zli radif:

*Kel, dahrni imtihon etib ket,
Sayri chamani jahon etib ket...*

Uch so'zli radiflar:

¹ "Nodira Devon": O'z.A. nashriyoti. - T.:1963.

Nigori gulbadanimni tushumda ko'rsam edim,

Labi shakarshikanimni tushumda ko'rsam edim...

Shu bilan bir qatorda, Nodira ijodi o'quvchilarga ayolning jamiyatdagi roli, hissiyati va ma'naviy dunyosi bilan tanishish imkonini beradi. Nodira asarlarida ona, oila, milliy qadriyatlar va ichki dunyo yoritilgan. Darsliklar orqali o'quvchilarga Nodira ijodidagi ma'naviy va madaniy mavzularni tahlil qilishga imkon beriladi. Masalan, darsliklarda Nodira asarlari bo'yicha ijodiy vazifalar, dramalar sahnalashtirish, shaxsiy izlanish yozuvlari va muhokamalar kiritiladi, bu esa o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Hozirgi adabiyot darsliklarida Nodiraning qalamiga mansub bir nechta g'azallarini o'quvchilar sevib, o'qib o'rganib kelmoqdalar. Masalan adabiyot darsliklarida berilgan Nodiraning ushbu g'azalini tahlil qiladigan bo'lsak:

Doda keldim, ey solatin sarvari, dodim eshit,

Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit....¹

Ushbu oshiqona g'azal o'zbek mumtoz she'riyati uchun an'anaviy bo'lgan ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya'ni foilotun foilotun foilotun foilun (yoki foilon) vaznida bitilgan. Taqte'si: -V--/-V--/-V--/-V-(yoki-V~). G'azaldagi beshinchi baytning birinchi misrasi "begonalig'" so'zi bilan tugagani, ya'ni oxirgi bo'g'in o'ta cho'ziq hijodan tashkil topgani uchun ramali musammani maqsur (-V--/-V--/-V--/-V~) vaznida bitilgan.

Shuningdek, Nodira ijodida yana ko'plab badiiy san'atlarni ko'rishimiz mumkin. Shoiraning she'riyatida turli badiiy tasvir vositalari keng qo'llanilgan. Bunday san'atlar she'ning obrazligini oshirib, o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi. Masalan: tashbeh sana'ti orqali shoiraning tasvirlari yanada jonli ifodalandi. Yorning go'zalligi ko'pincha tabiat unsurlari bilan qiyoslandi.

Istiora san'ati ham Nodira she'riyatida muhim o'rin aks etadi. Muhabbat ko'pincha olov yoki dard timsolida tasvirlanadi. Mubolag'a orqali shoiraning his-tuyg'ulari kuchaytirilgan holda ifodalanadi. Bu esa lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini yanada chuqurroq ochib beradi. Tajnis va takror kabi san'atlar esa she'ning musiyqiyiligini kuchaytirib, uning estetik ta'sirini oshiradi.

¹ Adabiyot 8-sinf, darslik. S.Olimov va boshqalar. -T.: 2019.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi - T.: 2006.
2. "Nodira Devon": O'z.A. nashriyoti. - T.:1963.
3. Nodira (g'azallar). O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti. - T.: 1958.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyot tarixi. – T.: 2006.
5. Adabiyot 8-sinf, darslik. S.Olimov va boshqalar. -T.: 2019.